

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komisiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

11.2021

**научно-теоретический методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2021

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

TAHRIR HAY’ATI:	
JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN	ABDULLAYEV Bahrom , fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom , biologiya fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV Ilyos , iqtisod fanlari doktori, ABDULLAYEV Ravshanbek , tibbiyot fanlari doktori, professor, ABDULLAYEV O’tkir , tarix fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana , pedagogika fanlari doktori, professor, BERDIMUROTOVA Alima , falsafa fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek , tarix fanlari doktori, DO’SCHONOV Tangribergan , iqtisod fanlari doktori, professor, ERMETOVA Jamila , filologiya fanlari nomzodi, dotsent, HAJIYEVA Maqsuda , falsafa fanlari doktori, IBRAGIMOV Zafar , fizika-matematika fanlari nomzodi, IMOMQULOV Sevdiyor , fizika-matematika fanlari doktori, JUMANIYAZOV Maqsud , texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otaboy , filologiya fanlari nomzodi, professor, KALANDAROV Aybek , filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (mas’ul kotib), NAVRUZOV Qurolboy , fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash , yuriduk fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa’dulla , falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat , filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QUTLIYEV Uchqun , fizika-matematika fanlari doktori, professor, RO‘ZIYEV Erkinboy , pedagogika fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy , fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SADULLAYEVA Nilufar Azimovna , filologiya fanlari doktori, SAGDULLAYEV Anatoliy , tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San’atbek , iqtisod fanlari doktori, professor, SALAYEVA Muxabbat Soburovna , pedagogika fanlari doktori, SATIPOV G‘oipnazar , qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor , pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘ribbosari), YOQUBOV Jamoliddin , filologiya fanlari doktori, professor, O’ROZBOYEV Abdulla , filologiya fanlari doktori, O’ROZBOYEV G‘ayrat , fizika-matematika fanlari doktori, G‘AYIPOV Dilshod , filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI	
2021 11(173)	

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrdan o‘tgan. **GUVOHNOMA № 1131.**

Калька (фран. calque – копия, тақлид) – ўзга тил материалидан қисмма-қисм нусха олиш йўли билан ҳосил қилинган сўз ёки бошқа бир тил бирлиги. Калькалар лексик, семантик, фразеологик бўлиши мумкин.

Лексик калька – бу ўзга тил луғавий бирлигидан қисмма-қисм нусха олиш йўли билан ҳосил қилинган сўз; луғавий калька.

Семантик калька – бу ўзга тилга оид сўз билдирадиган маънони ўзлаштириш натижасида ўз тилдаги сўзга шу маънонинг берилиши.

Фразеологик калька – бу ўзга тил фразеологик бирлигидан қисмма-қисм нусха олиш йўли билан ҳосил қилинган фразеологик бирлик.

Генерализация – бу таржима қилинаётган бирликнинг маъноси таржимада кенгроқ берилиши. Таржима жараёнида маълум бир маънога мос келадиган маънони топиш.

Грамматик трансформациялар – бу таржимада таржима қилинаётган тилнинг нормаларига мос тушган ҳолда гапнинг структурасини ўзгартириш. Грамматик трансформацияларга қуйидаги таржимавий усуллар киради: *сўзма-сўз таржима, гапларнинг бўлининиши, гапларнинг қўшилиши, грамматик ўзгартиришилар* (сўз тартибини ўзгартириш, сўз туркумларини алмаштириш).

Аддиция – содда гап таркибининг уюшиқ бўлаклар билан кенгайтирилиши.

Адъюнкция – синтактик бирлик таркибига шу таркиб мазмунига мувофиқ келадиган янги сўзнинг киритилиши.

Номлашии – предикатив синтагманинг номловчи синтагманинг номловчи синтагмага айлантирилиши.

Пермутация – гап бўлакларининг бир хил синтактик тузилишда ўрин алмаштириши.

Субституция – синтактик тузилма таркибидаги бир сўзни бошқа сўз билан алмаштириш.

Лексик-грамматик трансформацияларга қуйидаги таржимавий усуллар киради: *антонимик таржима, экспликация* (изохли таржима), *компенсация*. *Антонимик таржима* – бу аслиятдаги маънони қандайдир қарама-қарши маънога эга бўлган тушунча билан алмаштириш ҳамда таржимада ифодани маъно моҳиятига пуртур етказмай ифодалаш.

Эспликация (изохли таржима) – бу маънони тасвирлаш, изоҳлаш йўли билан очиб бериш.

Компенсация (йўқотганни тўлдириш) – бу аслиятдаги таржима қилиб бўлмайдиган элементни аслиятдаги ғоявий-бадиий характерга мос равишда элементлар билан алмаштиришдир.¹

Халқаро характердаги терминлар илмий-техник матнлар таржимасида қўлланадиган усуллар ёрдамида ўгирилади. Бу усуллар, манбаларда кўрсатилишича, қўйидагилардир: 1) транскрипция; 2) транслитерация; 3) сўзма-сўз (калька) таржима қилиш; 4) изоҳлаб баён қилиш. Терминларнинг қиёсий типологик таҳлилига бағищланган тадқиқотлар доирасини кенгайтириш, бошқача айтганда, бунда факат икки ёки уч тил эмас, балки турли тизимларга мансуб тиллар терминларни ҳам ўрганиш энг долзарб вазифалардан ҳисобланади. Шундагина дунё тиллари терминологик тизими универсалиялари ва хос томонларини кўрсатиш имконияти юзага келади.

Терминологик тизимлар таржимаси билан шугуулланиш эса буғунги глобаллашув даврида интеллектуал кўприк вазифасини ўташи мумкинлигини унутмаслигимиз лозим. Бу жараёнда терминологик лугатларга бўлган эҳтиёж ва зарурият алоҳида долзарблик касб этади.

Mizrabova Jeren Ismailovna (Buxoro davlat universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD); mizrabovajerenismailovna@mail.ru)

INGLIZ TILIDAGI KALAMBURNING O'ZBEK TILIGA TARJIMASIDA QAYTA YARATISH MUAMMOLARI

Annotation. Mazkur maqola ingliz tilidagi kalamburning o'ziga xos xususiyatlari va uning tarjimada aks ettirilishi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. Kalamburni tadqiq etish va aniqlash omillarining asosiy yo'nalichlari, mazkur stilistik vositaning nazariyasi muammolari, uning tarjimasida qo'llaniladigan bir nechta tarjima usullari va U.Shekspir asaridan so'z o'yini tarjimasi tahlillari keltirilgan. Kalamburni o'zbek tiliga qayta yaratish jarayoni bilan bog'liq murakkabliklar va tarjima usullari o'rganilgan.

Annotation. Настоящая статья посвящена изучению особенностей английского каламбура и способов его воссоздания в переводе. Обобщены основные направления факторов выявления

¹Таржима назарияси ва амалиёти фанидан маърузалар матни. ҚарДУ Француз тили ва адабиёти кафедраси, 2019, 20 – 21-бетлар.

и изучения каламбура и проблемы данного стилистического приёма, рассмотрены некоторые способы их перевода, приведён анализ игр слов из произведений Шекспира, рассмотрены сложности передачи английского каламбура в узбекском варианте, выявлены основные приёмы их передачи в узбекском языке.

Annotation. This article is dedicated to the study of the features of the English pun and how to recreate it in translation. To summarize the main directions of the factors of revealing in the study of puns and the problem of the theory of this stylistic device, some methods of translation are considered, an analysis of the translation of wordplay from the work of W.Shakespeare is given, the difficulties associated with the transfer of pun into Uzbek language are identified; the main methods are identified.

Kalit so‘zlar: kalambur, so‘z o‘yini, tarjima, tasnif, tarjima usullari, kinoya, kulgi, muallif niyati, Uilyam Shekspir, Jamol Kamol.

Ключевые слова: каламбур, игра слов, перевод, классификация, ирония, смех, замысел автора, Уильям Шекспир, Жамол Камол.

Key words: pun, wordplay, translation, classification, irony, laughter, author's intention, William Shakespeare, Jamol Kamol.

Tarjimashunoslik ilmida ko‘plab masala va vazifalar hamon o‘z yechimini kutmoqda. Kalambur (so‘z o‘yini) tarjimasi masalasi ham shular qatoridandir. Xorij ilmida bugungi kunga qadar mazkur soha-da ko‘plab izlanishlarning amalga oshirilganligiga qaramasdan, kalambur kabi vositaning xusuyatlari to‘g‘risida hali bir to‘xtamga kelinmagan va uning etimologiyasi to‘g‘risidagi turli fikr-mulohazalar mavjudligi e’tirof etilmoqda. Kalambur so‘zining kelib chiqishi tarixida calambour, calembourg kabi yozilishi shakllari mavjud bo‘lib, mazkur terminni Kalemberg shahri nomi yoki turli latifalardagi tarixiy shaxslar ismlari bilan bog‘laydilar: Lyudovik XIV davrida yashab o‘tgan, tilni bilmaganligi sababli fransuzchani buzib, o‘zining beixtiyor yaratgan kinoyali, dudmol qochirimlari bilan mashhur bo‘lgan vestfaliyalik graf Kalanber yoki Kalembergdir.

Kalambur so‘zi italyancha «calamoburlare» (peroda (yozuv quroli) hazillar yozmoq ifodasidan kelib chiqqanligi to‘g‘risida ham taxminlar mavjud. Yana bir o‘ziga xos rivoyatda bayon etilishicha, mazkur so‘z qachonlardir Hindistondan Yevropa mamlakatlariiga olib kelingan kalambur daraxti nomidan olingan bo‘lib, nutqda nomuvofiq qo‘llanilishi tufayli kulgili holatni keltirib chiqargan va oqibatda Fransuz dramaturgi Fuzelye tomonidan aniqlanganidek, iste‘dotsiz shoir, abbat (Fransiya katoliklarning ruhoniysi) Sheryening hazilomiz she’riy uydirmalarida aforizm ko‘rinishida (Pleurons tous en ce jou, Du bois decalembour. Bugun ham ko‘z yosh qilamiz, kalambur daraxti uchun) o‘z ifodasini topgan. XVIII asrning oxiriga kelib esa kalambur so‘zi fransuz tili lug‘atidan joy olib ulgurdi.

Tilshunoslik ilmida ham hamon kalamburning asl mohiyatini yorituvchi yagona bir tushuncha shakllanmaganligi tufayli mazkur termin atrofidagi ko‘plab bahs-munozaralaga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, tahlilimizdagi termin – “so‘z o‘yini”, “so‘z o‘tkirligi”, “ikki ma’noli”, “hazil” kabi nomlarni olgan. Shuni ham hisobga olish kerakki, barchasining ma’no va mazmuni turlichalar sharh-izohlarga ega bo‘lib kelmoqda. Ko‘plab xorij izohli lug‘atlarida kalambur so‘zining manusiga turli talqinlar keltirilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, S.I.Ojegovning “Rus tili lug‘atida” “Kalambur – komiklikka (kulgili) asoslangan, talaffuzi o‘xhash, ammo ma’nolari turli xil so‘zlardan iborat hazildir” kabi ta‘rif keltirilgan.¹

Kalamburning asosiy stilistik maqsadi – kitobxon diqqat-e’tiborini jalb eta olgan matnning ma’lum bir nuqtasidagi komik effekt yoki satirik ohang bo‘lib, mazkur vositaning aynan shu jihatni mutarjim tomonidan tarjimada to‘laqonli aks ettirilishi maqsadga muvofiqidir.

I.V.Lyoxin va professor F.N.Petrov tahriri yati ostidagi “Chet tili so‘zları lug‘atida” quyidagicha tavsif keltirilgan: “Kalambur – bu turli mazmundagi so‘zlarning o‘xhash talaffuziga asoslangan so‘z o‘yini”. Kalamburga keltirilgan bunday talqinlar ba‘zi nazariyachilar tomonidan ma‘qullanmagan. “So‘zlarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari o‘rtasidagi chegara nisbiy va o‘zgaruvchandir. So‘zlarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolarini taqqoslanishini kalamburning asosi deb qabul qilinishini adolatli deb bo‘lmaydi”.¹

“Kalambur – bu komik ta’sirga ega talffuzlar o‘xshashligida qurilgan o‘tkir va zukko so‘z o‘yinidir”.²

¹ Ожегов И. Словарь русского языка. 70000 слов. Под ред. Шведовой Н.Ю.. М., “Русский язык”, 1989, с. 734.

¹ И.В.Лекхин, Ф.Н.Петров. Словарь иностранных слов. Изд.3-е, М., “Русский язык”, 1988, с. 254.

² Брокгауз Ф.А., Эфрон И.А. Энциклопедический словарь. Издательство “Русское слово”, 1996, с. 54.

“Kalambur stilistik vosita emas, balki u badiiy nutqning alohida kichik janri bo‘lib, maqol, aforizm, topishmoqlar bilan bir qatorda turuvchi kichik shakldagi badiiy asar. Shuningdek, mazkur janrni B.Y. Normanning ham o‘tkir gap, anekdot bilan bir qatorda e’tirof etishi bejiz emasdир”.¹

Tahlilimizdagi terminning tavsifi muammolari qatorida uni so‘z o‘yini sifatida o‘rganish masalasi ham o‘rin olgan. Ba’zi tilshunos olimlar “kalambur” va “so‘z o‘yini”ni bir-biriga tenglashtirsalar, boshqalari esa so‘z o‘yini tushchasini turli til vositalarini o‘z ichiga oluvchi, aksariyat hollarda, kalamburdan yiroq bo‘lgan ancha keng hodisa deb qaraydilar. O.S.Axmanova tahririyati ostidagi lingvistik terminlar lug‘atida quyidagicha ta’rifni kuzatishimiz mumkin: “Kalambur (so‘z o‘yini) – bir so‘zning turli mazmuni yoki ikkita bir xil talaffuz etiluvchi so‘zlarning humoristik (parodiyali) qo‘llanilishiga asoslangan nutq shaklidir”.²

Yuqorida keltirilgan ta’rif va tavsiflarda so‘z o‘yini va kalambur kabi tushunchalar ajratib ko‘rsatilganligi va mualliflar ularni ifodalar tuzilishi xususiyatlaridan kelib chiqib, ajratganliklarini kuzatishimiz mumkin. Y.P.Xodakovaning fikricha, kalamburning vujudga kelishi uchun so‘z o‘ynini qurilmasi zarur bo‘lib, mazkur strukturaning asosiy maqsadi esa gapiruvchi ifdasining belgilangan vaziyat va tinglovchiga nisbatan hazil, kinoya, hajviy, satirk munosabatini aks ettirishi zarur. Vaholanki, keltirilgan kontestda bunday intilish bo‘lmasa, demak, so‘z o‘yini qurilmasi ham mavjud bo‘lmay, kalambur haqida ham gap bo‘lishi mumkin emas”.³

Bir nechta ilmiy nashriyotlarda kalambur – paronomaziya (talaffuzlari o‘xhash, ammo ma’nolari har xil so‘zlarning kalamburga oid jipslashgan stilistik shakli) kabi terminiga tenglashtirilganligini ham kuzatishimiz mumkin. Shu jumladan, A.V.Filippov “paronomaziyan kalamburning sinonimi”⁴deb ataydi.

Ammo, shuni aytish kerakki, paronimlar yordamida yuzaga keluvchi stilistik effekt, aynan bir hil emas, balki talaffuzlari o‘xhash so‘zlar asosida quriladi. Masalan, agarda omomnimlar talaffuzda to‘liq mos kelsa, paronimlar, aksincha, sodir bo‘ladigan hodisadir. Ma’lumki, omofonlar va omograflar kalamburning asosiy manbayi sifatida qabul qilingan (omofonlar – bu talaffuzlari bir xil, ammo yozilishi va ma’nolari har xil so‘zlar (masalan: son – sun, hour – our, meet – meat) bo‘lib, omograflar – bu yozilishi bir xil, ammo talaffuzi turli xil so‘zlardir (masalan, can – qila olmoq, banka), live – (yashamoq, onlay translyasiya) wave – (to‘lqin, silkitmoq, qoqmoq, qanot qoqmoq, qo‘l silkitib chaqirmaq, ishora qilmoq).

Yuqorida keltirilgan kalambur va so‘z o‘yini kabi tushunchalarining ajratilishi kerak, degan fikrining davomi sifatida L.K.Bobilevaning quyidagi ta’kidlarini keltirishni ma’qul ko‘rdik: “Agarda kalambur – bitta so‘zning turli ma’nolarini yoki ikkita o‘xhash talaffuz etiluvchi so‘zlarnig parodiya, hajv tarzida qo‘llanilishiga asoslangan nutq shakli bo‘lsa, unda so‘z o‘yini – bu boshqa har xil so‘zlarga nisbatan alohida bir so‘zning turli ma’nolarining vujudga kelishidir”.⁵

Umuman, boshqa stilistik vositalardan farqli o‘laroq, kalamburning bir xil saviyadagi ikki qismdan iborat ekanligi kabi omili uning o‘ziga xos lingvistik xususiyatini belgilaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida ko‘rsatilgan kalamburning ikki qismlari nafaqat qarama-qarshi qo‘yilib, balki dialektik jihatdan bir butunga biriktiriladi ham. Vositaning har bir qismi alohida mazmunga ega bo‘lib, ammo talaffuzlari o‘xhashaligi kabi xususiyati beixtiyor kalamburning hosil bo‘lishiga to‘liq asos yaratadi. Shuningdek, fonografik va semantik munosabatlar asosida yaratilgan kalamburlarning bir nechta turlarini ajratish mumkin. Shuningdek, yuqorida biz kalambur terminini belgilash kabi muhim masalani o‘rganishga harakat qildik. Aslida, fanda kalambur tushunchasiga oid ko‘plab tavsiflar keltirilgan bo‘lib, hamon mazkur til hodisisi xususida aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Kalambur – bu turli ma’nolarga ega, ammo bir xil talaffuz etiladigan yoki o‘xhash talaffuz etiladigan so‘zlar, so‘zlar guruhi, bitta so‘z yoki so‘z iborasining turli ma’nolarining komik tarzda qo‘llanilgan stilistik nutq iborasi yoki ma’lum muallifning miniaturasidir.

Ma’lumki, kalambur termini tasnifi muammosiga oid ko‘plab izlanishlar amalgalash oshirilgan. Bu kabi tadqiqotlar bir-biridan kalamburga oid tafsilotlari, bat afsil tekshiruvlari bilan birmuncha ajralib turadi. Shuningdek, olimlar kalamburning turli, ya’ni semantik jihatdan (polisemiya, omonimlar, omoformalar) yoki fonetik jihatdan (masalan, omofonlar) kabi ko‘rinishlarini o‘rganadilar. Masalan:

¹ Норман Б.Ю. Игра на гранях языка. Издательство “Флинта, Наука”, 2006, с. 8.

² Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1968, с. 69.

³ Ходакова Е.П. Из истории русского каламбура (вторая половина 18 первая треть 19 века). Автореферат дис. канд. фил. наук, М., 1969, с. 22.

⁴ Филиппов А.В., Романова Н.Н. Словарь речевого общения: этика, прагматика, психология, 2010, с. 143.

⁵ Бобылева Л.К. Обыгрывание слов как стилистический приём. Английская филология, Владивосток, 1973, вып. 4, с. 39.

Leksik “bazoviy” hodisalarga muvofiq, A.P.Skovorodnikov kalamburning keyingi turlarini ajratib bergen:

- polisemik;
- omonimik;
- antonimik;
- paronimik;
- “mualliflik etimologiyasiga” asoslangan leksemalar.¹

Kalambur tarjimasi muammozi tarjimashunoslikning tor sohasini tashkil etasa-da, uni tadqiq etish qiziqarli va istiqbolli vazifalardandir. Kalambur tarjimasida mutarjim, eng avvalo, muallifning niyati yoki vositaning shaklini asrab qolish kabi muammolariga duch keladi. Aslida, muallifning kalamburni yaratishdan asosiy maqsadi mazmun va ifoda usulining nomutanosbligi yordamida tinglovchining e’iborini jalb etish yoki uni kuldirishdan iborat. U.Shekspirning “Hamlet” asaridan olingan kalamburning Jamol Kamolning asliyatdan amalga oshirgan o’zbek tarjimasi tahlillarni keltiramiz:

Claudius:

But now, my cousin Hamlet, and my son, –

Клавдий:

Qalay jiyan-o‘g‘lonimiz Hamlet bu nafas?

Hamlet:

A little more than kin, and less than kind.²

Ҳамлет:

O‘g‘illigi yolg‘on, lekin jiyanligi rost.³ (J.Kamol tarjimasi)

Ingliz tilidagi kin – qarindosh, avlod – ajdod va kind – mehribon, iltifotli, xushmuomala, qadrli, aziz, samimi kabi ma’nolarga ega. Bu yerda Klavdiy Hamletdan my cousin – jiyanim va my son – o‘g‘-lim deb so‘zlarni o‘z lug‘aviy ma’nolarida qo‘llaydi. Asliyatdan keltirilgan misolda til vositalari va asar syujetining bevosita bog‘liq ekanligi aniq ko‘rinib turibdi. Ya’ni, asarni o‘qiganda haqiqatdan ham Hamlet nutqidan o‘zining va Klavdiyning, hatto qarindoshdan ham yaqinligi (amaki-jiyan, o‘gay ota-o‘gay o‘g‘il) ammo ularning munosabatlari hech ham samimi emas ekanligiga nisbatan ifodalagan kinoyasini payqash mumkin.

Asar boshida Laert bilan bo‘lgan birinchi suhbatini tugatgach, Klavdiy Hamletga yuzlanib, “But now, my cousin Hamlet, and my son” (so‘zma-so‘z tarjimasi – “Endi esa, mening jiyanim Hamlet va mening o‘g‘lim”), ya’ni, Klavdiy Hamletga qarab, “jiyan” deganida ularning qarindosh ekanligini va “o‘g‘-lim” deganida, endi qarindoshdan ham yaqinligini nazarda tutadi. Intellektual obraz sifatida Hamlet qirolikdagi o‘zgarishlarni boricha qabul qilmasligi tayin va atrofida ro‘y berayotgan voqealar to‘g‘risida atroflicha fikr yuritishi, tabiiy. Shuning uchun ham o‘zining jiyanligini tan olsa-da, amakisiga o‘g‘il bo‘lganligi to‘g‘risida hali xulosa qilishga shoshilmaydi.

Shuningdek, tragediyadagi Hamletning ilk nutqida ham ikki ohangdosh so‘zlar o‘yini qatnashgan (kin/kind). Ko‘rinadiki, Klavdiy Hamletga qarab “jiyan” va “o‘g‘lim” deganida shahzoda “a little more than kin and less than kind” kabi javobini keltiradi. Ya’ni, o‘z javobida bosh obraz amakisining jiyaniga ko‘rsatayotgan xushomadlariga ishonmasligini nazarda tutadi. Demak, qirolning quruq dabdabali “Qalay jiyan-o‘g‘lonimiz Hamlet bu nafas?” kabi savoliga motamdar shahzoda javobining pragmatikasidan – qarindoshdan yaqinroq, ammo hech ham iltifotli emas kabi kinoyali mazmunni tushunib olish mumkin.

Tarjimadagi kalamburda semantik siljish minimal darajada bo‘lib, J.Kamol Shekspir matnining asl mohiyatini anglagan holda, yuqorida Klavdiyning shahzodani “my cousin” (jiyan) va “my son” (o‘g‘lim) deb boshlab bergen zanjirninig mantiqiy davomi sifatida o‘z tarjimasida “O‘g‘illigi yolg‘on, lekin jiyanligi rost.” kabilarning kontrastida dramaturg bandining parodiya usulini asray olgan. Mutarjimning tarjima varintini tanlashdagi qo‘llangan strategiyasi natijasida ikki xil interpretatsiyaga undovchi situativ analoqning yaratilishiga olib kelingan.

Kalambur o‘girmasida so‘zma-so‘z tarjima usulini qo‘llash orqali kutilgan natijaga erishish, amri-mahol, chunki bunday strategiya vosita elementlaridagi semantik va sintaktik og‘ishlarga zamin yaratadi. Shu sababli mutarjimlar kalambur tarjimasida turli tarjima usullari, ya’ni kalka, tushirib qoldirish yoki kompensasiya kabilarni qo‘llaydilar. Mazkur vosita o‘girmasidagi tarjima usullarni tanlashda, albatta,

¹ Сковородников А.П. О понятии термина «языковая игра». Филологические науки, 2004, № 2, с. 234.

² <http://shakespeare.mit.edu/hamlet/full.html>

³ Jamol Kamol. Otello. Toshkent, 1991, 98-bet.

kontekst, til xususiyatlari, muallifning o‘ziga xos deran milliy-ruhiy xarakteri qamrovi va g‘ayrilisoniy omillar o‘z ta’siriga ega.

**Батиршина Жумакул Колмирзаевна (ТДПУ Термиз филиали ўқитувчиси)
“УСТА ВА МАРГАРИТА” РОМАНИНИГ ЎЗИГА ХОС БАДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ**

Аннотация. Уйбу мақолада буюк ёзувчи Михаил Афанасьевич Булгаков ижодий фаолияти, унинг машҳур “Уста ва Маргарита” романни бадиий аҳамияти, қаҳрамонларининг ўзига хос тасвири таҳтил қилинган.

Аннотация. В статье анализируется творчество великого писателя Михаила Афанасьевича Булгакова, художественное значение его знаменитого романа «Мастер и Маргарита», неповторимый образ главных героев.

Annotation. This article analyzes the creative work of the great writer Mikhail Afanasevich Bulgakov, the artistic significance of his famous novel “The Master and Margarita”, the unique image of the protagonists.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, Mixail Bulgakov, metafizik haqiqat, jismoniy haqiqat, xayoliy satira, siyosiy satira.

Ключевые слова: мистицизм, Михаил Булгаков, метафизическая реальность, физическая реальность, фантастическая сатира, политическая сатира.

Key words: mysticism, Mikhail Bulgakov, a metaphysical reality, physical reality, a fantastic satire, political satire.

Машҳур рус ёзувчининг “Уста ва Маргарита” романни XX аср маданий ҳаётига жаҳон ва рус мумтоз адабиётининг гоявий, семантик ва маънавий-ахлоқий салоҳиятини сингдирган.

Михаил Афанасьевич Булгаковнинг “Уста ва Маргарита” романни ажойиб жозибага эга. У энг юкори даражадаги долзарблиги билан ажралиб туради. Асар автобиографик ижод намунаси-дир. Уста образида Булгаковнинг ўзи тасвирланган.

Устознинг тақдири Михаил Булгаковнинг фожиали тақдирининг аксиидир. Унинг асарлари нашр этилмаган, Совет хукумати ва расмий совет танқидлари уларни қабул қилмаган. Булгаков хукуматга йўллаган мактубида аччиқлик билан қайд этди: «Цензурага қарши кураш ...менинг ёзувчи вазифам, шунингдек, матбуот эркинлигини талаб қиласи. Мен бу эркинликнинг ашаддий муҳлисиман ва агар ёзувчиларнинг бирортаси бунга муҳтож эмаслигини исботлашга қарор қилса, у балиққа ўхшаб, унга сув керак эмаслигига ишонтириб айтади. Бу менинг ишимнинг хусусиятларидан биридир ва менинг асарларим СССРда мавжуд бўлмаслиги учунгина етарли.¹

Михаил Булгаков ўзининг сўнгги ва, эҳтимол, асосий асари «Уста ва Маргарита» ижодий гоясининг сирини бу дунёдан олиб кетди.²

Булгаковнинг “Уста ва Маргарита” романни, дастлаб, хаёлий сатира сифатида қабул қилинади. Шуни таъкидлаш керакки, Булгаков устози буюк рус сатирик ёзувчиси М.Е.Салтыков-Щедринидир.

Булгаковнинг яна бир муҳлиси Н.В.Гоголь эди. Мен Салтыков-Шедриннинг қуйидаги сўзлари романнинг ажойиб шиорига айланиши мумкинлигига ишонаман: “...Мўъжизалар мавжуд, уларда синчковлик билан ўрганилганида, улар жуда ёрқин ҳақиқий асосга эга бўлишади”.

Булгаковнинг романнида 30-йилларда Москвада содир бўлган хаёлий ва ҳақиқий воқеалар бир-бирига чамбарчас боғлиқдир. Яқиндан ўрганиб чиқсан, роман сиёсий сатира мақомига эга бўлади.

Булгаков саҳий истеъодида, эҳтимол, ёзувчининг бутун адабий фаолияти давомидадир, уч турдаги иқтидор-сатирик иқтидори, фантаст иқтидори ва ўта аниқ психологик таҳлилга суюнган реалист иқтидори қўшничилик қилиб, бир-биридан устунликка эришиш учун баҳсласиб келган, десак, хато бўлмайди.¹

“Уста ва Маргарита” романи ғаройиб бинонинг бунёд этилишида Булгаков истеъодининг бу уч тури бар-баравар ёйинки деярли бар-баравар хизмат кўрсатди. Уларининг ҳар жиҳатдан ча-

¹ М.Булгаков. Уста ва Маргарита. М., 1989, с. 174 – 177.

² А.И.Шаховской. Метафизический реализм. “Мастер и Маргарита”. Избранное, Петрозаводск, 1992, с. 506.

¹ М.Булгаков. Уста ва Маргарита. “Шарқ”, Т., 2008, З-бет.